

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11098187>

NIKOHNI HAQIQIY EMAS DEB TOPISH OQIBATLARI

Turakulov Boyburi Kuzimuratovich

Ichki Ishlar vazirligi Surxondaryo akademik litseyi huquqshunoslik fani o'qituvchi

ANNOTATSIYA

Maqolada yuridik jihatdan qonuniy deb topilmaydigan nikoh munosabatlari va u bilan bog'liq ziddiyatlar hamda ularga amaliy yechimlar belgilab berilgan.

Oilada qonunchiligidagi nikohni haqiqiy emas deb topish bilan bog'liq nazariy hamda amaliy masalalar xorijiy davlatlar qonunchiligi hamda oila sohasidagi qonunlarimizga kiritilayotgan yangi o'zgarishlar asosida tahlil qilindi.

***Kalit so'zlar:** oila, nikoh, emansipatsiya, nikohni haqiqiy emas deb topish asoslari, diniy rasm-rusimlar bilan tuzilgan hikoh, ayolni nikohga majburlash, gender tenglik.*

АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрены супружеские отношения и связанные с ними конфликты, которые не считаются юридически законными, а также связанные с ними конфликты. определены практические решения.

Проанализированы теоретические и практические вопросы, связанные с признанием брака недействительным в семейном праве, на основе законодательства зарубежных стран и новых изменений, вносимых в наше законодательство в области семьи.

***Ключевые слова:** брак, эмансипация, основания признания брака недействительным, брак по религиозной обрядности, принуждение женщины к вступлению в брак, гендерное равенство.*

Ming yillik tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi qadimdan ota-bobolar an'alariga sodiq bo'lgan holda axloq tamoyillariga asoslangan oilani mustahkamlash, ona va bolalar manfaatlarini har tomonlama muhofaza qilish va har qaysi bolaga baxtli bolalikni ta'minlash, kishilarda oila oldida mas'ul bo'lish hissini tarbiyalash – nikoh va oila to'g'risidagi qonunchilikning muhim vazifalaridan biri hisoblangan.

Nikohni qayd etishga huquqi bo'lgan har bir davlat organi, tuman hokimiyati bo'limi, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi, nikoh saroylari, baxt uylari,

qishloq (ovul) va posyolka kengashining ijroiya hokimiyatida qayd etilgan har bir nikoh qonuniy tuzilgan nikoh hisoblanadi.

Nikoh tuzishda qonunchilikda belgilab berilmagan shartlarga amal qilmaslik hikohni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'ladi.

Oila kodeksining 14- 16-moddalari hamda 17-moddasining uchinchi qismida belgilangan shartlar buzilgan taqdirda, shuningdek, soxta nikoh, ya'ni er-xotin yoki ulardan biri oila qurish maqsadini ko'zlamay tuzgan nikoh haqiqiy emas deb topiladi.

Oila kodeksida nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar belgilab berilgan bo'lib ularga quyidagilar kiradi.

- a) loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o'rtasida;
- b) nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va
- c) o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida;

d) loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida yo'l qo'yilmaydi.

- g) nikohga o'tish vaqtida oila qurish maqsadining soxtaligi;

Shuningdek, nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki orttirilgan immunitet taqchilligi sindromi (OITS) yoki (VICH infeksiya) borligini boshqasidan yashirgan bo'lsa, shu shaxs nikohni haqiqiy emas deb topishni talab etishga haqlidir.

Bazi bir holatlarda oila kodeksida belgilab berilgan shartlarni buzib ham nikoh tuzilishi mumkin, bunday holatlarda hikoh yuridik jihatdan emas deb topiladi.

Masalan, fuqaro oldingi nikohdan ajrashmasdan turib, voyaga yetmagan shaxs bilan nikohdan o'tgan hollar fikrimizning dalilidir:

- a) nikoh tuzishning ixtiyoriyligi buzilishi.

Nikoh tuzish tomonlarning ixtiyoriy roziligiga asoslangan bo'lishi lozim. Agar tomonlar nikohga aldash yoki qarindoshlarning aralashuvi bilan majburlash oqibatida kirishgan bo'lsa, bunday nikoh haqiqiy emas, deb topiladi.

Chunki, hech bir shaxs bunday holatlarda o'z erki bilan nikohdan o'tmagan bo'ladi. Natijada, nikoh tuzilishining asosi hisoblangan o'zaro xohish va rozilik tamoyili buzilgan bo'ladi. Ko'rsatilgan asos bo'yicha bunday nikoh haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikada xotin-qizlarni turmushga chiqishga majbur etish yoki, aksincha, o'zi xohlagan shaxsga turmushga chiqishiga to'sqinlik qilish hollari hamon uchramoqda.

Bunday holatlar nikohga o'tishning o'zaro rozilik shartini buzishga qaratilgan harakat deb tushuniladi.

Ayolni erga tegishga yoki nikohda yashashni davom ettirishga majbur qilish yoxud ayolning erkiga xilof ravishda u bilan nikohda bo'lish uchun o'g'rilash, shuningdek, ayolning erga tegishiga to'sqinlik qilish jinoyat kodeksining 136-moddasi bilan jinoyat deb topiladi va javobgarlikka asos bo'ladi. Adashish va aldash ham nikohni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'lishi mumkin. Biroq bunday holatlar zo'rlikka nisbatan kamroq uchraydi.

b) nikoh yoshiga qo'yilgan shartning buzilishi;

Nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan haqiqatda nikoh munosabatlariga kirishish yoki ota-ona yoki ularning o'rini bosuvchi shaxslar tomonidan nikoh yoshiga yetmagan shaxsni erga berish yoxud uylantirish, dastlab ma'muriy keyin esa jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Agar ,er-xotindan biri nikoh yoshiga yetmaganligi tufayli nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ish, agar er-xotin (ulardan biri) ish sudda ko'rilayotgan paytda nikoh yoshiga yetmagan bo'lsa, vasiylik va homiylik organining ishtirokida ko'rib chiqiladi.

Nikoh yoshi sharti, ko'pincha, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi xizmatchilari o'z vazifasini suiista'mol qilishi yoki nikohtuzuvchilarning o'zi tomonidan yoshi to'g'risida qalbaki hujjat berilishi natijasida buziladi. Nikoh yoshiga to'lmagan shaxs bilan tuzilgan nikoh hamma vaqt ham sud tomonidan haqiqiy emas, deb topilmaydi. Hali nikoh yoshiga yetmay nikohga kirgan shaxsning manfaatlari talab qilgan hollardagina sud bunday nikohni haqiqiy emas, deb topishi mumkin;

d) yakka nikohlilik tamoyilining buzilishi ham ushbu nikohni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'lishi mumkin. Bunday asos sud amaliyotida boshqa asoslarga qaraganda ko'p uchraydi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, haqiqiy emas deb topilgan nikohlar ichida 97-98 foizini yakka nikohlilik tamoyiliga rioya etilmagan hollarda yuzaga kelgan ishlar tashkil etadi. Faqat yakka nikohda bo'lish, axloq-odob normalari talablariga rioya qilinishi har tomonlama mustahkam oila qurish imkonini beradi. Oilaviy qonunlar nikohlanuv- chilardan har birining faqat yakka nikohda bo'lib, boshqa nikohda bo'lmasligini talab etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, nikohni haqiqiy emas deb topish bilan bog'liq qoidalar zamonaviy oila, fuqarolik, fuqarolik-protsessual tamoyillari hamda rivojlanayotgan oila qonunchligiga moslashishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: Adolat, 2021. K-90 Kuldashv N.A., Nurullayev U.K. Fuqarolik va oila huquqi: Darslik. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022. – 141 b Muallijlar jamoasi O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharhlar. – T., Adolat, 2000.
2. Otaxo‘jayev F.M. Nikoh va uning huquqiy tartihga solinishi. T., O‘zbekiston, 1995. 10 Otaxo‘jayev FM
3. Nikohning tugatilishi // J. Qonun himoyasida. 1998. – Nsl2. Otaxo‘jayev F.M. Oila huquqi. – T., TDYI, 2005.
4. Topildiyev B.R. Oila huquqi. O‘quv uslubiy qo‘llanma. – T., 2009. Yuldasheva Sh.R., Shoraxmetova V.Sh., Topildiyev B.R. Oila htiquqidan o‘quv- uslubiy qo‘llanma. – T., TDYI.
5. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi (2023 yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendum yakunlari bo‘yicha) “O‘ZBEKISTON”-2023